QUVASOY SHAHRIDAGI ISTE'MOLCHILARNI ELEKTR ENERGIYASI BILAN TA’MINLOVCHI PAST KUCHLANISHLI 6-10 KVLI ELEKTR UZATISH TARMOQLARIGA QO’LLANILADIGAN NAVBATMA-NAVBAT CHEKLASH JADVALI

Havo harorati sovushi bilan energiya manbalariga ehtiyoj sezilarli ortib boradi, shu jumladan elektr energiyasiga bo’lgan talab ham. Umumenergotizimda katta avariyali holatlar sodir bo’lishini oldini olish maqsadida dispetcherlik xizmatlari tomonidan iste’mol balansini saqlashga qaratilgan choralar ko’rilishini taqozo qiladi. Shuningdek soha xodimlari oldida turgan dolzarb masala aholi va ijtimoiy ob’ektlarni barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash bo’lib, hududlarda bu borada tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yuqori iste’mol vaqtlarida viloyatga belgilangan iste’mol topshirig’ini bajarish, ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarni to’xtab qolishini oldini olish, elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilish muvozanatini ushlab turish hamda iste’molchilar ta’minotini tartibsiz uzilishlarni bartaraf etish maqsadida faqat favqulodda xolatda viloyatimizning hududlarida tuman, shahar hokimliklari bilan kelishgan holda elektr energiyasi ta’minotiga qisqa muddatli cheklovlar kiritiladi.

Ushbu cheklov grafigi faqat favqulodda, ob-havoning keskin sovib ketishi natijasida avariya holatlarini oldini olish, iste’mol ortib ketgandagina amal qiladi.

Diqqat! Tarmoqlar, podstansiyalarda avariyalar, avariyalarni tiklash, rejaviy ta’mirlash ishlari olib borilganda hamda energotizimda favqulotda vaziyat yuzaga kelganda, ushbu cheklov jadvallarida ko’rsatilgan soatlardagi tarmoqlardan tashqari qo’shimcha tarmoqlar o’chishiriladi va bu haqida OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali xabar beriladi!

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating
Facebook,
2022-12-19 14:46:41